



## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI (BOSHLANG'ICH SINFLAR MISOLIDA)

**Shukurov Avazjon Ruziboevich**

Musiq va tasviriy san'at kafedrasida dotsenti,

**Raxmatova Dilorom Raxmatulloyevna**

Tasviriy san'at va amaliy bezak  
san'ati mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Buxoro davlat pedagogika instituti,

Buxoro, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7790620>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25- mart 2023 yil

Ma'qullandi: 28-mart 2023 yil

Nashr qilindi: 31-mart 2023 yil

### KEY WORDS

*tasviriy san'at, rassomchilik,  
borliq, natura, zamonaviy  
texnologiya, metodika*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada umumta'lim maktab o'quvchilarining tasviriy san'at fanidan estetik dunyoqarashini oshirish, fanga zamonaviy yondashish texnologiyalari haqida gap ketadi. Inson uchun zarur bilimlar miqyosi tobora kengayib borayotgan hozirgi sharoitda muayyan faktlar yig'indisini o'zlashtirish bilan cheklanib bo'lmaydi. Shuning uchun o'quvchilarga o'z bilimlarini mustaqil ravishda to'ldirib va boyitib borishni, o'zining diqqat-e'tiborini ilmiy va siyosiy axborotlarning eng muhimlariga qaratishni o'rgatish kerak. Bu vazifa o'quvchilarning tasviriy san'at darslarini ta'lim-tarbiya jarayoni bilan uzviy bog'liq holda kengaytirish va rivojlantirishni taqozo etadi.*

“Tasviriy san'at” fanining asosiy maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilariga borliqni, tabiatdagi go'zalliklarni ko'ra bilishga, his etishga, ranglar tuslarini ajrata bilishga, fazoviy tasavvurlarga ega bo'lishga, xotirani rivojlantirish hamda kuzatuvchanlik hissiyotini shakllantirishga, tasviriy san'at asarlarini to'g'ri talqin qilib maqsadni anglashga va talabalarni badiiy, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish bilan birgalikda ma'naviy yuksaklikka undashdan iboratdir.

Boshlang'ich sinflarda “Tasviriy san'at” fanining o'ziga xos xususiyatlari, avvalombor, ta'lim mazmuni kichik maktab yoshidagi bolalarning yosh xususiyatlari va psixologiyasi, qiziqishi, ulardagi mavjud bilimi va qobiliyati hamda layoqatlariga qarab belgilanadi. Ma'lumki, bolalarda tasviriy faoliyatga, xususan, rasm chizishga ishtiyoq nihoyatda erta boshlanadi. Uni 2-3 yoshlardan boshlanishi pedagogika fanidan ma'lum. Shunisi qiziqki, bolalar o'qish va yozishdan ko'ra rasm chizishni juda yoqtiradilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriy faoliyatini xarakterli jihatlaridan yana biri ularning chizadigan rasmlarini soddalashtirishga bo'lgan harakatlaridir. Ular ayrim narsalarning oldi ko'rinishini, ayrimlarini yon tomonidan, yana boshqalarini ustki tomonidan tasvirlaydilar. Bular bolalarga rasm ishlashda ma'lum yengillik va qulaylik tug'diradi. Shuningdek, bu yoshdagi bolalar narsalarni yorug'-soya, perspektiv qisqarishi va ularning qoidalarni tushunib uetmaganliklari sababli ularni tasvirlashmaydi. Bolalar ijodiga xos yana bir jihat bor, u ham bo'lsa tasvirlarni (buyumlarni) bir-birlarini to'sib turgan (yoki qisman) holda tasvirlanmasligidir. Chunki, bolalar narsalarni

doimo butun holda idrok etadilar. Yuqorida qayd qilingan tasviriy faoliyatlarning bu xususiyatlari bolalar tafakkurining aniq, obrazli va emotsional tarzda bo'lishligi bilan bog'lanadi.

Endi boshlang'ich sinflarda tasviriy san'at darslarini o'tkazish metodikasining o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtaladigan bo'lsak. Davlat ta'lim standartida tasviriy san'at ta'limi mazmuniga bo'lgan majburiy minimum talablari quyidagi to'rt yo'nalishda bayon etilgan:

1. Borliqni va san'atni idrok etish
2. Badiiy qurish-yasash
3. Naturaga qarab tasvirlash
4. Kompozitsion faoliyat

Davlat ta'lim standartlari bo'yicha boshlang'ich maktablarning to'rtinchi sinfini bitiruvchi o'quvchilar bevosita quyidagilarni bilishlari lozim:

- tasviriy san'at darslarida ishlatiladigan ish qurollari va materiallarni: albom, qalam, mo'yqalam, slek, bo'yoq, palitra, guash, akvarel;
- rang nomlari;
- tasviriy san'at darslarida ishlatiladigan o'quv qurollari bilan to'g'ri munosabatda bo'lish qoidalarini;
- 15 nafar ijod qiluvchi rassom va haykaltaroshning ismi va familiyasini hamda ularning asari nomini;
- asosiy va hosila ranglarni, xromatik va axromatik ranglarni, iliq va sovuq ranglarni; - naqsh turlarini - yoysimon naqsh, to'rtburchak naqsh, kvadrat naqsh, doira shaklidagi naqsh;
- amaliy san'atda ishlatiladigan gul nomlarini - barg, dubarg, se barg, oygul, bodom, shobarg, paxmagul;
- amaliy san'atda ishlatiladigan atamalarni - rassom, rang, rasm, shakl, applikatsiya, ritm, simmetriya, asimetriya, surat, format.

Hozirgi yangilanayot ta'lim jarayonida "Tasviriy san'at" fanining rivojlanishi, yanayam keng yoyilishi, ўқувчиларда rasm chizish savodxonligini oshirish maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan ma'qulroq. Tasviriy san'atning pedagogik texnologiyasi - bu tasviriy san'at o'qituvchisining o'quvchilarga ma'lum davrda va sharoitda san'at bilimi va malakasini berish vositalari asosida oldindan belgilangan maqsadga erishish hamda bu vazifani bajarishni kafolatlay oladigan pedagogik jarayondir. Maktabda tasviriy san'at fanini o'qitishda ham pedagogik texnologiyaning "dars texnologiyasi", "o'qitish texnologiyasi" va "ta'lim texnologiyasi" kabi ko'rinishlaridan foydalaniladi.

1. "Dars texnologiyasi" - bu 45 daqiqali tasviriy san'at darsining qurilishi, tuzilishi va tashkil etilishining umumiy pedagogik talablarga (didaktik va metodik) javob berishni kafolatlaydigan pedagogik jarayondir. Ya'ni tasviriy san'at o'quv fanining sinf-dars sistemasi bo'lib, u yangi bilim berish, berilgan bilim-malakasini mustahkamlash, aralash dars, bilim-malakani tekshirish va nazorat qilish darslari kabilardir. Ularning har biri o'ziga xos texnologiyalarda faoliyat yuritadi.

2. "O'qitish texnologiyasi" - bu texnologiya ma'lum bir o'quv predmetini o'qitish va o'zlashtirish yo'lining didaktikasi va xususiy metodikasi jarayonini ifoda etadi. Shunga ko'ra, o'qitish texnologiyasi tasviriy san'at dars mashg'ulotlarining besh turi bo'yicha o'zgarib turadi. Chunki tasviriy san'at dars mashg'ulotlarini o'qitish didaktikasi va uslublari mashg'ulotlardagi maqsad-vazifalarning o'zgarib turishi bilan uning o'qitish texnologiyasi

ham o'zgarib turadi.

3. "Ma'lumot texnologiyasi" - bu o'quvchilarga ma'lumot berish mazmunida ifodalanib, u o'quvchilarga tasviriy san'at o'quv fanidan bilim-malaka berish jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida ilmiy muloqot, munosabat, ijodiy hamkorlik jarayonlari mazmunida ifodalanadi. Ya'ni o'quvchilarga beriladigan san'at nazariyasi va rasm chizish (tasvirlash)ga oid bilim-malakani o'quvchilarga yetkaza olishni kafolatlay oladigan ta'lim-tarbiya vositalari, o'qitish didaktikasi, metodikasi va uslublari majmuasida ifodalanadi. Chunki dars jarayonida tasviriy san'at o'qituvchisi o'quvchilarga bo'ladigan dars mazmuni bo'yicha va darsda bajariladigan amaliy ishlar бўйича vazifalar va ularni bajarish yo'llari haqida eng oson, eng qisqa va ilmiy asosdagi ma'lumotlar beradi.

Maktabda tasviriy san'atni o'qitish texnologiyasida asosiysi - bu kafolatlangan natija bo'yicha imkoniyat, shart-sharoit, vositalar, metodika va uslublari bo'lib, ularni tashkil etish - tasviriy san'atni o'qitish didaktikasi va uning prinsiplarining asosiy vazifasiga kiradi. Chunki maktab tasviriy san'atini o'qitish didaktikasi har bir dars машғулоти uchun, eng avvalo, berilayotgan bilim-malakalarning ilmiy asosda bo'lishini ta'minlaydi.

Ilmiylik prinsipi - o'quvchilarga rasmi chiziladigan natura, obyekt, mavzu, voqea-hodisalarni yoki tahlil qilinadigan san'at asari bo'yicha beriladigan har bir ma'lumotning ilmiy va fan ma'lumotlari asosida bo'lishini ta'minlaydi.

Tasviriy san'at o'quv fani o'ziga xos xarakteriga ko'ra, ko'rgazmasiz o'qitish mumkin bo'lmagan o'quv fani hisoblanadi. Maktabdagi tasviriy san'at darslarida:

- "Og'zaki bayon etish" metodining suhbat, hikoya, savol-javob, ma'ruza kabi uslublardan;

- "Ko'rgazmali o'qitish" metodini namoyish etish, illustratsiya va reproduksiya bilan ishlash, doskadagi rasm va ekskursiya kabi uslublardan;

- "Amaliy ishlar" metodining rasm ishlash, haykal ishlash, badiiy-amaliy san'at, kompozitsiyalar ustida ishlash, san'at asarlari tahlili, san'at asarlari yuzasidan insho, referat yozish kabi uslublardan foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabda tasviriy san'atni o'qitish texnologiyasi o'zining oldindan belgilangan maqsadiga erishish uchun bu fanni o'qitish didaktikasi va metodikasidan a'lo darajada foydalana olishi o'qituvchi zimmasidagi asosiy vazifa bo'lib qoladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev N. San'at tarixi. 2 jildli, 1-jild, T., 1986.
2. Azimova B.Z. Badiiy-grafika fakultetida kurs ishi bajarish yuzasidan meto4. dik tavsiyalar. T., 1989.
3. S.Abdurasulov. Tasviriy san'at o'qitish mctodikasidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish. T., 1996.
4. Abdurasilov S, N. Tolipov. Rangtasvir. T.. «Bilim», 2005.
5. <http://wikiped.uz>